

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI
A.QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
“UMUMIY TARIX” KAFEDRASI**

Tarix fakulteti III kurs tolibi

Mirzayev Sherzodning

O'zbek davlatchiligi tarixi fanidan

KURS ISHI

Mavzu: O'zbekistonning milliy davlat boshqaruvining tashkil etilishi

Qabul qildi:

dots.Xolmurodov A

Topshirdi:

Mirzayev Sh

Jizzax – 2012

Mavzu: O'zbekistonning milliy davlat boshqaruvining tashkil etilishi

Reja:

Kirish

I-bob. O'zbekistonning milliy davlat boshqaruvining tashkil etilishi

- 1.1. O'rta Osiyo Respublikalari o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarning yo'lga qo'yilishi
- 1.2. Istiqlol yillarida O'rta Osiyo Respublikalari o'rtasida savdo, diplomatik va o'zaro elchilik munosabatlari
- 1.3. "Turkiston-umumiy uyimiz"

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Kirish

Ota-bobolarimiz necha asrlar mobaynida shu bepoyon mintaqada qanday hamjihat bo`lib, qanday qadriyatlar asosida yashab kelgan bo`lsa, bugun ham tarix va hayot gardishi, tabiatning o`zi bizni butun O`rta Osiyo xalqlarini aynan ana shunday do`stlik va hamkorlik ruhida hayot kechirishga davat etmoqda.

Bir so`z bilan aytganda, tarixiy voqelikka mana shunday qarash, jamuljam bo`lib yashash tuyg`usi biz uchun hayot falsafasiga, yana ham aniqrog`i, hayot qoidasiga aylanib ketgan.

Tadqiqot mavzusi mustaqillik yillarida O`rta Osiyo davlatlari o`rtasidagi integratsiya jarayonlari xususidadsir. Shu boiz mazkur kichik tadqiqot ishini ilmiy asosda yoritishni, o`rganishni o`z burchimiz deb bildik.

Mustaqilligimizni ilk davrlaridanoq O`zbekiston tashqi siyosatining muhim yo`nalishlaridan biri Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar –Qozog`iston, Qirg`iziston, Tojikiston, Turkmaniston bilan hamkorlik, qardoshlarcha do`stlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan edi.

Mintaqadagi beshta davlat o`rtasida o`xshash jihatlar ko`p. Tariximiz, madaniyatimiz, tilimiz, dinimizning birligi, tomirlarimizning tutashib ketganligi, bu mamlakat xalqlarini bir –biriga yaqinlashtirishning zaminidir. O`zbekiston rahbariyati bu mintaqadagi davlatlar, xalqlar o`rtasidagi teng huquqli va o`zaro manfaatli hamkorlik o`rnatish va mustahkamlash choralarini qadamma-qadam ko`rib bormoqda.

Markaziy Osiyo davlatlarining boshliqlarining birinchi uchrashuvi 1990 yil iyunda Almati shahrida bo`lib o`tgan edi. Unda bu davlatlar o`rtasida do`stlik va hamkorlik o`rnatilish zarurligi asoslab berildi. Uchrashuv Sovet Ittifoqi hali mavjudligi sharoitida uning ahvoli tobora yomonlashib, xalq xo`jaligining barcha sohalarida tanglik kuchayib borayotgan, pul qadrsizlanayotgan, narh-navo qimmatlashib borayotgan sharoitda bo`lganligini shu o`rinda ta`kidlash lozim.

Shuning uchun ham Markaziy Osiyodagi besh davlat iqtisodiy tanglikdagi chiqish uchun resurslarni birlashtirish zarur degan xulosaga keldilar: beshta respublika oliy rahbarlari I.Karimov, N.Nazarboyev, A. Masaliyev, Q. Mahkamov

va S. Niyozovlar O`rta Osiyo va Qozog`iston xalqlariga murojaatnoma hamda respublikalar rahbarlarining bayononi nomli hujjatlarni imzoladilar. 1990-yil iyunda bo`lgan Almati uchrashuvida davlat boshliqlari har yili uchrashuv o`tkazish to`g`risida ahdlashib oldilar.

Ming taassuf bilan shuni aytish kerakki, sobiq SSSR hukmronligi paytida Turkiston xalqlari o`rtasida “Xitoy devori” tiklandi. Natijada ongimiz va tushunchalarimizga chegara solindi, milliy mahdudlik qobig`ida biqinib qoldik. Bundan esa faqat “ulug` og`achilik” siyosatini yurgizuvchilargina foydalanishdi, xolos.

Darhaqiqat, biz tariximizga ham, olis istiqbolimizga ham ajdodlarga xos donishmandlik bilan ma`naviy va axloqiy yuksaklikdan turib qarashimiz kerak. Olamga kengroq nazar solishimiz lozim. Ana shunda mintaqa mamlakatlari milliy mustaqilligini saqlagan holda umumiy taraqqiyot va buyuk kelajak sari yana ham ko`proq ishonch bilan borishi mumkin bo`ladi.¹

I-bob. O`zbekistonning milliy davlat boshqaruvining tashkil etilishi

1.1.O`rta Osiyo Respublikalari o`rtasida ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarning yo`lga qo`yilishi

Markaziy Osiyodagi mustaqil davlatlar o`rtasida ko`p tomonlama hamkorlik bilan birga ular o`rtasida ikki tomonlama aloqalar ham yo`lga qo`yildi.

O`zbekistonning Qozog`iston bilan ikki tomonlama munosabatlari 1992 yil 24 iyunda Turkiston shahrida O`zbekiston Prezidentining Qozog`istonga rasmiy davlat tashrifi paytida N.Nazarboyev bilan I.Karimov tomonidan imzolangan «O`zbekiston Respublikasi bilan Qozog`iston Respublikasi o`rtasida do`stlik va hamkorlik to`g`risidagi shartnoma» asosida mustahkamlanib bormoqda. 1993 yil 10 noyabrda I.Karimov Almatiga safar qildi. O`zbekiston va Qozog`iston Prezidentlari ikki mamlakat integratsiyasiga oid aloqalar masalasini, iqtisodiy siyosatini muhokama qilishdi. O`zaro sarmoyalarni amalga oshirish yo`llari va

¹ A. Ibrohimov, X.Sultonov, N. Jo`rayev. Vatan tuyg`usi. T. “O`zbekiston”, 1996, 302-bet.

usullari, qo'shma korxonalar, yuksak texnologiyalar yaratish haqida gaplashib olishdi².

Tomonlar pul tizimiga doir masalani muhokama qilib, ikkala tomon bir vaqtda milliy valyutani joriy etish haqida axdlashdilar. Ikkala mamlakat pul tizimini birgalikda mustahkamlashning prinsipial masalalari bo'yicha kelishib olishdi. Aholining ikkala mamlakat pullarini erkin almashtirish uchun pul almashuv tarmoqlarini vujudga keltirishga e'tibor qilish zarurligini ta'kidladilar, hukumatlarga va banklarga banklararo hisob-kitoblar, erkin savdo, bojxona bo'yicha amaliy choralar ko'rish to'g'risida ko'rsatma berildi. Ikki davlat o'rtasida savdo-sotiq, iqtisodiy hamkorlik to'g'risida bitimlar to'zildi. O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida iqtisodiy integratsiyaga oid aloqalar, o'zaro sarmoyalar almashish, qo'shma korxonalar va yuksak texnologiyalar yaratish ishlari yo'lga qo'yildi.

Qozog'istoy Prezidenti N.Nazarboyev 1994 yil 10-12 yanvarda rasmiy davlat tashrifi bilan O'zbekistonda bo'ldi. Ikki Prezident O'zbekiston bilan Qozog'iston o'rtasida tovarlar, xizmatlar, sarmoyalar va ishchi kuchlarining erkin o'tib turishini nazarda tutuvchi hamda o'zaro kelishilgan kredit-hisob-kitob, byudjet, soliq, narx, boj va valyuta siyosatini ta'minlovchi shartnomani imzoladilar.

O'zbekiston va Qozog'iston chegaralari orqali kirishda va chiqishda ikkala mamlakat fuqarolarining yuklarini bojxona tekshiruvidan o'tkazishni bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilindi.

O'zbekiston Milliy banki bilan Qozog'iston Milliy banki Toshkent shahrida «O'zbekiston-Qozog'iston» hamda Almati Shahrida «Qozog'iston-O'zbekiston» kliring palatalarini, shaharlarda uning filiallarini, valyuta almashtirish punktlarini ochish to'g'risida ikki mamlakat hukumatlari va banklari o'rtasida bitimlar imzolandi. O'zbekiston bilan Qozog'iston o'rtasidagi hamkorlik tobora kengayib, chuqurlashib bormoqda.

² Jo'rayev N, Fayzullayev T, Usmonov Q. O'zbekiston tarixi. 11-sinf.T., "Sharq", 1998, 330-bet.

O'zbekistonning Qirg'iziston bilan ikki tomonlama hamkorligi «O'zbekiston Respublikasi bilan Qirg'iziston Respublikasi o'rtasida do'stlik, hamkorlik va o'zaro yordam haqida shartnoma» asosida yo'lga qo'yildi va rivojlantirilmoqda. Bu shartnoma Qirg'iziston Prezidenti Askar Akayevning O'zbekistonga rasmiy davlat tashrifi paytida Toshkentda 1992 yil 29 sentyabrda I.Karimov va A.Akayev tomonidan imzolangan edi.

I.Karimovning 1993 yil avgustda Qirg'izistonga qilgan rasmiy davlat tashrifi paytida O'sh shahrida O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasida 1994-2000 yillarga mo'ljallangan iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish to'g'risida Bayonotnoma imzolandi. Bu hujjat ikkala respublikada ishlab chiqilgan milliy dasturlarni muvofiqlashtirishga, xom ashyo va ishchi kuchidan, ilmiy salohiyotdan unumli foydalanishga qaratilgan. Ikki davlat o'rtasida iqtisodiyot, savdo, madaniyat, sog'liqni saqlash, fan va ta'lim, sport va turizm bo'yicha hamkorlikni mustahkamlash haqida bitimlar imzolangan.

1994 yil 16 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov Qirg'izistonda bo'ldi. Rasmiy tashrif yakunida ikki davlat Prezidentlari tovarlar, xizmatlar, sarmoya, ishchi kuchlarining erkin yurishini, o'zaro kelishilgan hisob-kitob, sarmoya, byudjet, soliq, narx, bojxona va valyuta siyosatini belgilovchi shartnomani imzoladilar.

O'zbekiston va Qirg'izistonning iqtisodiy imkoniyatlarini uyg'unlashtirish haqida qaror qabul qilindi. Bu qarorga binoan fuqarolarning chegaralardan o'tayotganida yuklarini bojxona tekshiruvidan o'tkazish bekor qilindi, soliqlar, tulovlar va boshqa turdagi cheklashlar kamaytirildi.

Ikki mamlakat banklari kliring palatalari, ularning filiallari, valyuta almashtirish punktlarini ochishga kelishib olishdi.

O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasida 1994 yil uchun savdo-iqtisodiy hamkorlik, madaniyat, sog'liqni saqlash, fan va ta'lim, sport va turizm bo'yicha hamkorlikni yanada mustahkamlash xaqida bitimlar imzolandi. Bu hujjatlar asosida ikki mamlakat o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlik rivojlanib bormoqda.

1991 yilda bo'lib o'tgan O'zbekiston va Turkmaniston Prezidentlari uchrashuvida «O'zbekiston Respublikasi bilan Turkmaniston Respublikasi o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma» imzolandi. Bu shartnoma ikki davlat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy, madaniy aloqalarga negiz bo'lib xizmat qilmoqda³.

I.Karimovning 1993 yil 14-15 aprel kunlari Turkmanistonga rasmiy safari ikki davlat o'rtasidagi aloqalarning yanada kengayishiga xizmat qilmoqda. Ana shu safar chog'ida tomonlar neft va tabiiy gaz qazib olish, qayta ishlash va tashish, buning uchun zarur korxona va inshootlarni qurish hamda ishga tushirish, bu sohadagi loyihalarni birgalikda pul bilan ta'minlash masalalarini muhokama qildilar. Tomonlar jahon talablariga mos avtomobil va temir yo'llar qurish sohasida zarur chora-tadbirlar qurish haqida kelishib olishdi. Suv boyliklaridan foydalanish, ekologiya, savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish masalalari muhokama etildi.

O'zbekiston Prezidenti I.Karimov 1996 yil 16 yanvar kuni amaliy tashrif bilan Turkmanistonda bo'ldi. Chorjuy shahrida S.Niyozov bilan I.Karimov o'rtasida va ikki mamlakat delegatsiyalari o'rtasida muzokaralar bo'ldi. Prezidentlar O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasida do'stlik, hamkorlik va o'zaro yordam to'g'risidagi shartnomani, O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasida davlat chegarasini qo'riqlashda hamkorlik qilish to'g'risidagi va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha bitimlarni imzoladilar.

Ikki mamlakat hukumatlari o'rtasida esa sarmoyalarni rag'batlantirish va o'zaro himoyalash, havo yo'li, bojxona ishlarida hamkorlik va o'zaro yordam, uzoq muddatli savdo-iqtisodiy hamkorlikning asosiy yo'nalishlari, daromad va mulkdan ikki yoqlama soliq olmaslik, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, sayyoxlik va boshqa sohalarda hamkorlik qilish to'g'risidagi 20 dan ziyod bitimlar imzolandi.

Qabul qilingan shartnoma va bitimlar O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga ko'tardi.

³ Jo'rayev N, Fayzullayev T, Usmonov Q. O'zbekiston tarixi. 11-sinf.T., "Sharq", 1998, 332-bet.

O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasida ham aloqalar o'rnatilgan va rivojlanib bormoqda. Tojikistonda 1992-1996 yillarda davom etgan birodarkushlik urushi Tojikistonning iqtisodiy taraqqiyotiga salbiy ta'sir qildi, uning qo'shni mamlakatlar, jumladan O'zbekiston bilan hamkorligiga ham putur yetkazdi.

1997 yilda Moskvada Tojikistonning rasmiy hokimiyati bilan muxolifat kuchlar o'rtasida to'zilgan milliy murosa haqidagi shartnoma Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari uchun ayni muddao bo'ldi. Tojikistonning qo'shni mamlakatlar bilan aloqalari yana jonlandi.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning taklifiga binoan 1998 yil 4 yanvar kuni Tojikiston Prezidenti Imomali Raxmonov O'zbekistonga amaliy tashrif bilan keldi. Ikki mamlakat rahbarlari tashrif yakunlari bo'yicha Qo'shma axborot imzoladilar. O'zbekiston va Tojikiston Bosh vazirlari sog'liqni saqlash, madaniyat va gumanitar soha, fan, texnika va axborot sohalari bo'yicha hamkorlik to'g'risida bitimlarni imzoladilar. Ikki mamlakat hukumatlari o'rtasida yuk tashish hamda gaz yetkazib berish, Tojikistonning qarzi bo'yicha o'zaro hisob-kitob to'g'risidagi bitimlar ham imzolandi. O'zbekiston va Tojikiston munosabatlari o'zining yangi, mustahkamlanishi va taraqqiyot davriga o'tdi. Shu vaqtgacha O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasida 30 dan ortiq hujjatlar imzolangan. Ular o'rtasida tovar ayirboshlash hajmi 1997 yilda 50 million AQSH dollaridan oshdi, bu avvalgi yilga nisbatan 50 foiz ko'pdir. O'zbekiston Tojikiston hududidan o'tgan transport kommunikatsiyalaridan foydalanmoqda.

Yangi ikki palatalik Parlamentning qo'shma majlisida Prezidentimiz Markaziy Osiyoda strategik mavhumlik qolati hanuzgacha saqlanib qolayotgani haqida tashvishlanib gapirgani yaxshi ma'lum. Shunday ekan, ushbu masalaning ma'no-mazmuni, unga bilvosita va bevosita ta'sir o'tkazuvchi omillar, shuningdek, muammoning zahirida yotgan sabablar nimalardan iborat, degan savol tug'ilishi tabiiy⁴.

Strategik mavhumlik mintaqaviy yoki hududiy darajadan tortib to umumsayyoraviy qamrov kasb etishi mumkin. Ayni paytda bizni strategik

⁴ Jo'rayev N, Fayzullayev T, Usmonov Q. O'zbekiston tarixi. 11-sinf.T., "Sharq", 1998, 320-bet.

mavhumlikning mintaqaviy darajasi, uning Markaziy Osiyo bilan bog'liq tomoni qiziqtirar ekan, shu munosabat bilan quyidagilarga e'tiborni qaratish o'rinlidir.

Ma'lumki, o'tgan XX asrning 90-yillariga kelib ikki bir-biriga mutlaq, zid siyosiy-harbiy tizim o'rtasida yarim asr davom etgan hayot-mamot kurashiga chek qo'yildi. Albatta, bu insoniyat osoyishtaligi, taraqqiyoti manfaatlari nuqtai nazaridan o'lkan siljish sifatida e'tirof etilsa-da, dunyo miqyosida o'ziga xos strategik vakuumning paydo bo'lishiga olib keldi. Shuningdek, qator yangi mustaqil davlatlar, jumladan O'zbekistonning paydo bo'lishi unga qadar imzolangan va barcha davlatlar tomonidan e'tirof etilgan shartnomalar, chegaraga oid o'zaro kelishuvlarga, tabiiyki, o'zgartirishlar kiritilishiga ehtiyojni keltirib chiqardi. Hullas, global miqyosda ro'y bergan chuqur siljishlarning aks-sadosi mintaqamizga ham yetib keldi.

Bu muammoning bir jihati. Uning boshqa tomoni esa xavfsizlik va barqarorlik nuqtai nazaridan bo'shliq paydo bo'lgan makonlarga ko'plab qudratli davlatlar va davlatlararo ittifoqlarning oshkora intilishining kuchayganligi bilan belgmlanadi. Mintaqada davlatlar xulqi-atvori, tutgan o'rniga tamomila aloqasi bo'lmagan, ammo biz uchun tashvishli bir vaziyat vujudga keldiki, uning kaltisligi va beqarorligidan Markaziy Osiyo strategik jihatdan hali-hanuz aziyat chekmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: «Bu yerda jahondagi yirik davlatlar va bizga qo'shni bo'lgan mamlakatlarning strategik manfaatlari mavjud bo'lib, ba'zida ular bir-biri bilan kelishmasligini ham kuzatish mumkin».

Ko'rib turganimizdek, Markaziy Osiyodagi bugungi strategik mavhumlik, bir tomondan, to'g'ridan-to'g'ri bundan 10-15 yillar avval jahonda sodir bo'lgan o'lkan geosiyosiy, demakki geostrategik «portlash»ga borib taqalsa, ikkinchi tomondan, u sobiq Ittifoq, harobalarida paydo bo'lgan yangi mustaqil davlatlardan birortasining ham xalqaro faoliyati bilan bog'liq emas. Ya'ni mintaqada bugungi kunga kelib, ko'pgina muammolar o'z yechimini kutayotgan yoki yangi-yangi muammolar paydo bo'layotgan bo'lsa, Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O'zbekistan unga mutlaqo dahldor emas.

1.2.Istiqlol yillarida O`rta Osiyo Respublikalari o`rtasida savdo diplomatik va o`zaro elchilik munosabatlari

Biz integratsiya jarayonlari va bozor islohotlarini rivojlantirishga, Markaziy Osiyo mintaqasida umumiy bozorni shakllantirishga alohida ahamiyat beramiz.

XX asrning oxirida yuz bergan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy o`zgarishlar natijasida dunyoning geosiyosiy holati tubdan o`zgardi, yangi mustaqil davlatlar vujudga keldi va bu davlatlar xalqaro munosabatlar tizimida o`z o`rnini aniqlash yo`liga o`tdi.

Bular jumlasiga Markaziy Osiyo davlatlari ham kiradi. Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikni qo`lga kiritganlaridan so`ng, har biri o`zining siyosiy va iqtisodiy, tashqi va ichki siyosatida ustuvor tamoyillarni aniqlab olgan holda milliy davlatchiligini shakllantira boshladi. Davlatlar tashqi siyosat yurgizar ekan, albatta, milliy manfaatlarini ko`zlaydi. Tashqi siyosatning mohiyatini esa milliy manfaatlar tashkil etadi.

Milliy manfaatlar - bu millati, dini, dunyoqarashidan qat'i nazar, respublikamizdagi barcha fuqarolarning manfaatidir. Mazkur manfaatlarning turli xil tashqi va ichki tajovuzlardan himoya qilinishiga erishish bevosita milliy xavfsizlikni ta'minlash bilan bog`liq. Shu nuqtai nazardan O`zbekiston Respublikasi tashqi siyosati, avvalombor, milliy manfaatlar asosida shakllangan bo`lib, quyidagi tamoyillar uning ustuvor yunalishlari sifatida qabul qilingan:

-respublika milliy davlat manfaatlarining ustunligi, boshqa davlat manfaatlarini hisobga olish zarurati;

-respublika xalqaro maydonda tinchlik va xavfsizlik uchun, ziddiyatlarni tinch yo`l bilan hal qilish tarafdori sifatida harakat qilishi;

-yadrosiz hudud bo`lgani holda, O`zbekiston hech qanday harbiy bloklarga va ittifoqlarga kirmaydi, shuningdek, munozarali muammolarni kuch yoki kuch orqali taxdid qilish yo`li bilan hal qilishdan bosh tortishi;

-tashqi siyosatning boshqa davlatlarning ichki ishiga aralashmaslik, teng huquqlilik va o`zaro manfaatdorlik tamoyillariga asoslangan holda qurilishi;

-o'z milliy-huquqiy tizimini barpo etayotgan O'zbekistonning ichki davlat me'yorlariga nisbatan xalqaro huquq me'yorlarining ustun ekanini tan olishi va barcha xalqaro standartlarga rioya qilishi;

-O'zbekiston, o'zaro ishonch asosida ikki tomonlama va ko'p tomonlama tashqi aloqalarni o'rnatishga va xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlik qilishga tayyorligi.

Xalqaro munosabatlarda qabul qilingan mazkur tamoyillar o'ta muhim bo'lib, ularga rioya qilish davlatlar o'rtasidagi muammolarni yechishga ko'mak beradi.

Shu o'rinda aytish lozimki, O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy yunalishlaridan biri bu Markaziy Osiyo omilidir. Zero, Markaziy Osiyo bugungi kunda jug'rofiy-siyosiy va jug'rofiy-strategik nuqtai nazardan juda muhim markaziy hududda joylashgan. Markaziy Osiyo haqida prof.G.A.Xidoyatov shunday deydi: «Markaziy Osiyo davlatlari Osiyo mintaqasida muhim geosiyosiy o'rin tutadilar. Ularning hududi 4.4 mln. kv.km. bo'lgani holda, butun Osiyoning 10 foizini tashkil etadi. Hudud Xitoy chegaralaridan Eron va Kaspiygacha cho'zilgan bo'lib, Yevropa, Uzoq Sharq va Janubiy Osiyoni bog'lovchi butindir. Markaziy Osiyo davlatlarining kelajakda dunyo siyosatida muhim tarixiy rol o'ynashi uchun barcha imkoniyatlar mavjud».

Markaziy Osiyo davlatlari «sovuq urush» barham topgandan keyingi davrda - xalqaro munosabatlarning yangicha tizimi tarkib topishi jarayoniga jadal qo'shilmoqda. Ikki muhim omil: geostrategik sharoit va tabiiy resurslar Markaziy Osiyo mintaqasiga olamshumul iqtisodiy va siyosiy o'lchovlarni baxsh etmoqda. O'z navbatida, bu omillar bir-biri bilan o'ta chatishib ketgan tarkibiy qismlarga bo'linib ketadi, buning ustiga, ularning rivojlanishi bir maromda emasligi kuzatilmoqda. Ayrimlarining ahamiyati yo'qolib borayotgan bo'lsa, boshqalari, aksincha, endi avj olib kelmoqda.

Bugungi kunda etnik, mahalliy, mintaqaviy mojarolar va jangari separatizm, diniy aqidaparastlik kabi omillar xavfsizlikka tahdid solmoqda. Ayniqsa, bunday qarama-qarshiliklar ayrim kuchlar qo'lida ularning o'z manfaatlarini va ta'sir

doiralarini saqlab qolish va himoya qilish uchun yoki strategik kuchlar muvozanatini o'z foydasiga o'zgartirish uchun qudratli siyosiy ta'sir vositasiga aylantirishga harakat qilmoqda. Har qanday mintaqaning hal qilinmagan va gazak otib ketgan muammolari butun dunyoda zanjir reaksiyasini keltirib chiqarishi mumkin. O'zbekiston etnik, demografik, iqtisodiy va boshqa muammolar girdobida qolgan mamlakatlar qurshovida joylashgan.

Dunyo hamjamiyatining Markaziy Osiyoga nisbatan qiziqishi va manfaatlari juda kuchlidir. Shu bilan bir qatorda, aytish lozimki, tashqi kuchlarning siyosiy va iqtisodiy, ma'naviy va mafkuraviy manfaatlari ham yo'q emas. Shuning uchun mintaqada joylashgan davlatlar bu muammolarning yechimini birgalikda izlab topishlari lozim bo'ladi. Prezidentimiz aytganlaridek, Markaziy Osiyo mintaqasining barqaror rivojlanishi va taraqqiyoti, uning xalqaro hamjamiyatga qo'shilishi va ular bilan teng huquqli aloqalar o'rnatishi ko'p jihatdan tinchlikka bog'liqdir. Tinchlik esa hamkorlikda ta'minlanadi.

Sayyoramizning juda katta maydonida kuchlar nisbati ko'p jihatdan Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlarning qaysi yo'ldan borishiga bog'liq. Shunday ekan, mustaqillikning birinchi yillaridanoq mintaqadagi davlatlarga davlat sifatida rivojlanishiga, iqtisodiy taraqqiyotiga, o'zi tanlagan yo'ldan borishiga tashqi kuchlar tomonidan ta'sir ko'rsatish harakatlari bo'ldi. Mintaqada jug'rofiy-siyosiy muvozanatni va barqarorlikni saqlagan taqdirdagina mazkur muammolarni hal etish imkoni tug'iladi.

Geografik nuqtai nazardan O'zbekiston mazkur hududning markazida joylashgan va bu barcha yerdagi davlatlar bilan chegaradosh hisoblanadi. Qo'shni davlatlar bunday imkoniyatdan mahrumdirlar. Barcha davlatlar o'lkan geosiyosiy maydonda joylashgan bo'lib, umumiy infratuzilmaga, bir-biriga bog'liq iqtisodiyotga ega holda dengiz kommunikatsiyalaridan ancha uzoqda joylashganlar, ya'ni mazkur hudud kontinental hisoblanadi. Ana shu masalada Markaziy Osiyoni dunyoning boshqa mintaqasi yoki davlatlari bilan taqqoslab bo'lmaydi. Yevropa qit'asi, Osiyo Tinch okeani mintaqasi, Janubiy Osiyo va O'rta

Yer dengizi davlatlarining deyarli barchasi bevosita dengiz kommunikatsiyalariga chiqadi, ya'ni ular dengiz davlatlari hisoblanadi.

Markaziy Osiyo nafaqat geosiyosiy nuqtai nazardan, balki geoiqtisodiy tomondan ham yagona hudud xisoblanadi. Uning geosiyosiy jihatdan cheklangani tabiiy resurslarning boyligi bilan qoplanadi. Tabiiy resurslarni qazib olish va qayta ishlash yangi texnologiyalarni va texnologik fanlarni rivojlantirishni talab etadi. Afsuski, ushbu sohada Markaziy Osiyo davlatlari rivojlangan davlatlardan orqada qolmoqda. Shuning uchun mintaqa davlatlarining fan va texnika sohasidagi urinishlarini muvofiqlashtirishga extiyoj tug'ilmoqda. Har bir respublika alohida fanning muayyan sohasida ma'lum yutuqlarga ega, agarda ushbu yutuqlar umumiy manfaatlar yo'lida birlashtirilsa, yirik va ijobiy natijalarga erishsa bo'ladi.

Hududning tarixan birligi iqtisodiy integratsiya jarayonlariga kuchli turtki bo'ladi. Markaziy Osiyo davlatlarining dini, e'tiqodi, tili, urf-odatlarini, boshidan o'tkazgan og'ir tarixiy kunlari va yig'ilib qolgan muammolar yig'indisi ularni birlashtiruvchi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Shu jumladan, Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy integratsiyasiga tabiiy ta'sir etuvchi bir qancha omillar ham mavjud (bular suv manbalari va transport yullarining umumiyligi, kommunikatsiya va energetik resurslarning bir-biriga bog'liqligi, Orol dengizi bilan bog'liq ekologik muammo va boshqalar). Mazkur geoiqtisodiy birlik integratsiya jarayonlariga tabiiy asos bo'lishi mumkin va o'z navbatida mazkur omillarning xal qilinmasligi mintaqa xavfsizligi va integratsiya jarayonlarini rivojlantirishga to'sqinlik qilishi mumkin.

Markaziy Osiyo hududidagi iqtisodiy integratsiya jarayonlari chet davlatlarini ham, xalqaro tashkilotlarning ham mintaqamizga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Moliyaviy-iqtisodiy barqarorlik va milliy valyutamizning konvertatsiyasiga erishilgani, qulay agrosanoat kompleksi chet el investorlarini jalb etish uchun omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Lekin O'zbekistonning geografik joylashuvi, ochiq va arzon transport kommunikatsiyalarining yetarli emasligi, bojxona masalalarining to'la hal etilmaganligi, respublikalar o'rtasida pul muomalasi

tartibga solinmaganligi - katta miqdorda arzon ishchi kuchi bo'lgan taqdirda ham, - mahsulot va homashyoni, o'zlariga tegishli bo'lgan valyuta miqdorini olib chiqishdagi to'siqlar chet el kapitalini jalb etish samaradorligini pasaytirishi mumkin. Buni salbiy nuqtai nazar sifatida qaramaslik lozim, chunki yuqorida ko'rsatilgan muammolar hal etilsa, O'zbekiston va Markaziy Osiyo bozori chet el kapitali uchun foyda keltiruvchi manbaga aylanadi.

Shu nuqtai nazardan Markaziy Osiyo davlatlarining yoqilg'i-energetika borasida ham kelishilgan siyosat olib borishlari iqtisodiy integratsiya jarayoniga ko'mak beradi. Lekin bu juda nozik masala bo'lib, davlat rahbarlarining siyosiy irodasiga ham bog'liqdir. Markaziy Osiyoning neft va gaz zaxiralariga boyligi chet el davlatlarini doimo o'ziga jalb etib turadi.

Markaziy Osiyoda razvedka qilingan neft zaxiralari 15 dan 31 mlrd. barrel yoki barcha dunyo zahiralarining 2,7 foizini, tabiiy gaz zaxiralari 230 dan 360 trillion kub.futni yoki dunyo zaxiralarining 7 foizini tashkil etadi.

Hozirgi kunda Yevropa hamjamiyati davlatlari energetika ehtiyojlarining 50 foizini import evaziga qoplamoqdalar. Energetika bo'yicha xalqaro agentlikning ma'lumotiga ko'ra ushbu qaramlik yanada ortadi. Yevropa Ittifoqining tabiiy gazga bo'lgan ehtiyoji 220 mlrd. m.kubni tashkil etgan holda, 2010 yilga borib 300 mlrd.sm.kubga yetadi, ya'ni 35% foizga ortadi. Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarining yoqilg'i-energetik resurslarga bo'lgan ehtiyoji ham ayrim ma'lumotlarga ko'ra taxminan 30 foizga ortdi. Mazkur resurslarning cheklanganligi Yevropa, Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarini Markaziy Osiyo mintaqasiga e'tibor qaratishga undaydi. Osiyo hamkorligi tashkilotiga aylantirildi va uning siyosiy funksiyalari kengaytirildi.

Oxirgi o'n yil mobaynida mintaqa rahbarlari tomonidan juda ko'plab ishlar qilindi va natijada tinchlik, barqarorlik va xavfsizlik uchun yagona tizim o'zagi shakllandi. Tan olmoq zarurki, ushbu tizimning yuzaga kelishi va shakllanishida Islom Karimovning xizmatlari katta bo'ldi.

Mintaqa davlatlarining rahbarlari tomonidan olib borilgan bu harakatlar o'z natijasini bera boshladi. Hozirgi kunda Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan

iqtisodiy integratsiya uchun huquqiy asos yaratilmoqda. Iqtisodiy, savdo va bojxona munosabatlarning takomillashib borishi natijasida, Markaziy Osiyoning ichida ham kelajakda eksport-import amaliyotlarining rivojlanishi va uning yuqori bosqichga ko'tarilishini kutish mumkin.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekistonning asosiy vazifasi hozirgi kundagi turli xil tashqi va ichki omillarni, shuningdek, barcha davlatlarning manfaatlarini hisobga olgan holda integratsiya jarayonlarini sifat jihatidan yangi bosqichga qaratishdir.

Shunday qilib, XXI asrda mintaqadagi davlatlarning ushbu yo'nalishdagi harakatlari tinchlik, barqarorlik, xavfsizlik va jug'rofiy-siyosiy muvozanatni saqlab qolishga holis ko'z bilaq qarashga undaydi.

Mintaqaning kelajakdagi rivojlanishi va taraqqiyoti hozirgi xalqaro munosabatlarning, siyosiy va iqtisodiy aloqalarning sifat jihatidan yangicha tartibda shakllanishiga, mintaqa davlatlarini rahbarlarining yuksak mahorat va og'ir mas'uliyatiga bogliq.

1.3. "Turkiston-umumiy uyimiz"

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov o'zbek, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, tojik, turkman va mintaqada yashovchi barcha xalqlar o'rtasidagi qadimiy do'stlik aloqalarini yangi sharoitda mustahkamlashni nazarda tutib «Turkiston - umumiy uyimiz» degan g'oyani ilgari surdi. Mintaqa jamoatchilik vakillarini, birinchi navbatda, ijodkor ziyolilar - yozuvchilar, tarixchilar va boshqalarning e'tiborini Turkiston tuyg'usini- tarixiy birlik tuyg'usini qaytadan tiklashga qaratdi.

Mintaqa ziyolilari, Turkiston zaminida yashovchi barcha xalqlarni yaqinlashtirish maqsadida yurgan sog'lom kuchlar bu g'oyani qo'llab-quvvatladilar. «Turkiston - umumiy uyimiz» deb nom olgan jamoatchilik harakati tashkil topdi.

1995 yil 21 noyabr kuni Toshkentda Markaziy Osiyo ziyolilari ishtirokida «Qardosh xalqlar uchrashuvi» mavzusida xalqaro qurultoy bo'lib o'tdi. Qurultoyda «Turkiston - umumiy uyimiz» harakatini birinchilardan bo'lib qo'llab-quvvatlagan

mashhur qirg'iz yozuvchisi Chingiz Aytmatov ma'ruza qildi. Ma'ruzachi va so'zga chiqqan qardosh xalqlar vakillari mintaqada yashab o'tgan ajdodlarimiz ruhi bilan olis istiqboddagi tug'ilajak avlodlar bog'liqligi, mintaqaga yaxlitligi, yagona Turkiston tuyg'usining muqaddasligi haqida so'zladilar. Qurultoyda «Turkiston xalqlari madaniyati Assambleyasi» tashkil etildi. Chingiz Aytmatov Assambleya Prezidenti, Odil Yoqubov Assambleya vitse-prezidenta etib saylandi. Assambleyaning qarorgoxi Toshkent shahrida bo'lib, Bishkek va Almatida uning bo'limlari tashkil etildi.

«Turkiston — umumiy uyimiz» g'oyasini to'g'ri tushunish lozim. Uning zamirida Markaziy Osiyo mamlakatlarini birlashtirish yoki ular tepasida turuvchi yangi bir tizimni yaratish kabi maqsadlar qo'yilayotgani yo'q. «Turkiston - umumiy uyimiz» deganda barcha turkiy davlatlar hamda turkiy xalqlar nazarda tutilayotgani ham yo'q. Gap Turkiston deb nomlangan siyosiy-geografik hudud ustida, hududdagi mamlakatlarning o'zaro birligini mustahkamlash, ularning xalqlarini yaqinlashtirish haqida bormoqda. Markaziy Osiyo davlatlarining har biri o'z doirasida, o'z taraqqiyot yo'lidan rivojlanib boraveradi.

Turkiston xalqlari madaniyati Assambleyasi tashabbusi bilan Markaziy Osiyo mamlakatlari madaniyat, san'at, adabiyot va fan namoyandalari o'rtasida aloqalarni chuqurlashtirish, xalqlarni bir-biriga yanada yaqinlashtirish tadbirlari ko'rilmoqda.

1997 yilda Bishkekda «Mustaqillik vaziyatida ma'naviyat masalasi» mavzusida simpozium bo'lib o'tdi. Simpoziumda qardosh xalqlar ma'naviyatining yangi sharoitdagi holati va rivojlantirish muammolari haqida qimmatli fikrlar bildirildi⁵.

1997 yil aprel oyida Toshkentda taniqli qozoq adibi Muxtor Avezovning ijodiga bag'ishlangan «Muxtor Avezov va o'zbek adabiyoti» mavzusida ilmiy konferensiya bo'ldi. Usha yili may oyida «Mustaqillik - baxtimiz, toleimiz, kamolimiz» mavzusida mushoira, «Markaziy Osiyo mustaqil davlatlari xalqlari she'riyatining buguni va ertasi» mavzusida davra suhbatlari bo'lib o'tdi.

⁵ Ibrohimov A, Sultonov X, Jo'rayev N. Vatan tuyg'usi. T., "O'zbekiston", 1996, 298-bet.

1997 yil oktyabrda Assambleya Almatida «Muxtor Avezov va jahon adabiyoti» mavzusida uning 100 yilligiga bag'ishlangan xalqaro konferensiya o'tkazdi.

1997 yil oktyabr oyidan boshlab Assambleya tashabbusi bilan 8 sahifalik «Markaziy Osiyo madaniyati» nomli haftalik gazeta o'zbek, qozoq, qirg'iz, tojik, rus tillarida chiqmoqda. Bu tadbirlar mintaq xalqlari o'rtasidai azaliy do'stlik aloqalarini yanada mustahkamlash va chuqurlashtirishga ko'maklashmoqda.

Inson tabiati murakkab, ruhi hamda hissiy ta'sir darajasi o'ta nozik va ayni paytda juda sezgirdir. Donishmandlarning fikricha, ruh tuyg'ular bilan fikrlar ta'sirida paydo bo'lib shakllanarmish. Tashqi hodisalar, voqelik nechog'lik aniq va chuqur idrok etilsa, tuyg'ularga ta'sir shunchalik kuchli bo'lar ekan. Natijada ana shu taassurotlar qurshovida ruh, fe'l-atvor, borliqda o'ziga xos munosabat, olamni anglash qobiliyati shakllanadi.

Aflotunning fikriga ko'ra, ruh eng ezgu olam bo'lgani uchun inson avvalo o'z ruhini kamol toptirishi zarur. Zero, ruhning sog'lomligi – aql-idrok butunligidir, ruhning pokizaligi - hissiyot pokizaligi, tuyg'ular musaffoligidir. Qalbida shunday fazilat mavjud odamda Vatan, xalq, millat tushunchalari oliy haqiqat darajasiga ko'tariladi. Biz qanchalik ruhan tozalikka erishsak, fikrimiz shunchalik toza, xayollarimiz ravshan, orzu-umidlarimiz yorqin bo'ladi. Atoqli turk olimi Ziygo Go'kalp: "Fikrlari hislariga tamomila muvofiq bo'lmagan har bir odam ruhan xastadir. Bunday odam hayotda baxtli bo'la olmaydi. Masalan, hissiyotiga ko'ra kuchli dindor bo'lgan kishi o'zini fikran dinsiz deb tushuna boshlasa, ruhi qandaydir bir muvozanat, osoyishtalik holatida bo'ladimi? Shubhasiz yo'q!"- deydi.

Yaqin o'tmishimizga bir nazar solaylik. Bir necha ming yilliklar mobaynida joni joniga, qoni qoniga payvand bo'lib ketgan Turkiston xalqlari sobiq SSSR davrida turli millatlarga ajratib tashlandi. Qog'ozdagina suveren, aslida esa Markazga qaram sovet respublikalari barpo etildi. Bu soxta siyosat tufayli an'analari, turmush tarzlari, ruhiy va ma'naviy qadriyatlari bir bo'lgan xalqlar o'zbeku qozoqda, tojigu qirg'iz, turkmanga bo'lib yuborildi.

Albatta, mazkur xalqlar o'tgan 70 yildan ko'proq vaqt mobaynida millat sifatida shakalandi. Ularning o'z tili, madaniyati bor. Endi ularni butunlay birlashtirib yuborish milliy qadriyatlarini toptash bilan barobar. Biroq, masalaniig boshqa tomoni ham bor. Ya'ni, yagona Turkiston zaminida sobiq SSSR tarqalgach vujudga kelgan mustaqil davlatlar o'z tarixiy kelib chiqishlari, xalqlarining boy o'tmishi, ma'naviy va ruhiy ehtiyojlari nuqtai nazaridan o'zaro yaqinlashishga hayotiy zarurat sezishlari tabiiy holdir.

Turkiston xalqlari ruhiyati asrlar mobaynida bir-biriga tutashib, ma'naviy, diniy va axloqiy munosabatlari uyg'unlashib ketgan, yashash tarzlari va urf-odatlarini mushtarak bo'lib, yagona ulkan va jonli vujudga aylangan edi. Shuning natijasida qondoshu jondoshlik, bir butunlik an'analari tarkib topgan. Kishilik tarixida bunday ma'naviy, ruhiy va fikriy yaqinlik bu diyorda hamisha hamma narsadan ustun kelgan. Shuning uchun ham Mavlono Rudakiy:" Dunyoning shodligi yig'lsa butun, Do'stlar diydoridan bo'lol mas ustun", deb bejiz aytmagan.

Mustaqillik sharoitida bizning millat, millatlararo munosabatlar, milliy madaniyat, yaqin qardosh xalqlarning madaniy merosi, etnik muammolari, jug'rofiy va iqtisodiy birligi haqidagi tasavvurlarimiz o'zgarmoqda. Yangi tarixiy sharoitlarda vujudga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar Turkiston mamlakatlari xalqlari tarixi, ularning kelib chiqishi, o'ziga xos turmush tarzlari va yaqin qo'shnichilik munosabatlariga har qachongidan boshqacharoq qarashni taqozo etmoqda. Zero, etnik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan, tarixan bir muhitda yashab, o'tmish madaniyati bir zaminda vujudga kelgan, biroq, ayni paytda mustaqil davlat bo'lib yashayotgan mamlakatlar o'z tarixiy ildizlarini qidirib topishini, o'zaro hamkorlik munosabatlarini qaytadan tiklashini hayotning o'zi zarurat darajasiga ko'tarmoqda.

Qolaversa, hozirgi rivojlangan mamlakatlarda davlatlararo mintaqaviy hamkorlik siyosiy va iqtisodiy mazmundan birmuncha boshqacharoq - ma'naviy mazmun kasb etmoqda. Bu hozirgi zamon jahon sivilizatsiyasining eng ilg'or yo'nalishlaridan biri sifatida tan olinmoqda. Qardosh xalqlar va qo'shni

mamlakatlar umumiy xonadonini tashkil etish, yagona zamin, yagona makonni qaror toptirish, belgilashning ma'naviy poydevori - bu olis o'tmish mushtarakligini, shu asosda shakllangan urf-odatlar, an'analar va turmush tarzini chuqur o'rganishdir. "Turkiston - umumiy uyimiz" shiorining mazmuni, mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashdagi mohiyati ana shunda⁶.

Markaziy Osiyo hamdo'stligi mamlakatlari jahonning boshqa ittifoqdosh va mintaqaviy hamkorlik mamlakatlaridan farqli o'laroq ma'naviy va madaniy hamkorlikka ko'proq asoslanadi. Chunki bu hududda asrlar mobaynida ma'naviyat, axloq, ta'lim-tarbiya va madaniyat uyg'un holda turmush tarziga aylangan. Axloq har qanday sharoitda ham insoniylik va insoniy barkamollikning bosh prinsipi sifatida tan olingan. Qolgan barcha harakatlar va mezonlar, jumladan, iqtisodiy hamkorlik, o'zaro yordam, bozor munosabatlari, savdo-sotiq, mol ayirboshlash ham qadimdan yuksak axloq va odobga tayangan madaniy munosabatlarning bir qismi hisoblangan. Bu ming yillar mobaynida shakllanib, jahon sivilizatsiyasiga katta ta'sir ko'rsatgan ulug' allomalar hayoti va ijodida, ularning insoniyat tarixida burilish yasagan asarlarida ham o'ziga xos tarzda ifodasini topgan. Shu bois Sharq allomalari dunyoviy fanlarning qaysi sohasida ijod qilishmasin, axloq kategoriyasiga qattiq suyanishgan, unga katta e'tibor bilan qarab, qomusiy xulosalari bilan boyitib borishgan.

Ma'lumki, sivilizatsiya dunyoning turli mintaqalarida turlicha yuz berib, muayyan hududlar aholisi dunyoqarashi va turmush tarziga chuqur o'rnashgan. Sivilizatsiya, jumladan, Yunonistonda nafosat, Hindistonda din, Ovrupada moddiy-texnika taraqqiyoti, Turkistonda esa axloq shaklida vujudga kelgan. Natijada yunonlar ongi va dunyoqarashida go'zallikka intilish, san'at va madaniyatga ehtiyoj katta bo'lgan. Hindistonda turli din va mazhablar ko'payib, aqidalar va taqvodorlik tuyg'ulari ham har xil bo'lgan. Xalqlar ruhiyati va turmush tarziga singib ketgan bunday hodisalar hozir ham davom etmoqda.

⁶ Ibrohimov A, Sultonov X, Jo'rayev N. Vatan tuyg'usi. T., "O'zbekiston", 1996, 299-bet.

Xulosa

«Turkiston - umumiy uyimiz» g'oyasini to'g'ri tushunish lozim. Uning zahirida Markaziy Osiyo mamlakatlarini birlashtirish yoki ular tepasida turuvchi yangi bir tizimni yaratish kabi maqsadlar qo'yilayotgani yo'q. «Turkiston - umumiy uyimiz» deganda barcha turkiy davlatlar hamda turkiy xalqlar nazarda tutilayotgani ham yo'q. Gap Turkiston deb nomlangan siyosiy-geografik hudud ustida, hududdagi mamlakatlarning o'zaro birligini mustahkamlash, ularning xalqlarini yaqinlashtirish haqida bormoqda. Markaziy Osiyo davlatlarining har biri o'z doirasida, o'z taraqqiyot yo'lidan rivojlanib boraveradi.

Turkiston xalqlari madaniyati Assambleyasi tashabbusi bilan Markaziy Osiyo mamlakatlari madaniyat, san'at, adabiyot va fan namoyandalari o'rtasida aloqalarni chuqurlashtirish, xalqlarni bir-biriga yanada yaqinlashtirish tadbirlari ko'rilmoqda. Inson tabiati murakkab, ruhi hamda hissiy ta'sir darajasi o'ta nozik va ayni paytda juda sezgirdir. Donishmandlarning fikricha, ruh tuyg'ular bilan fikrlar ta'sirida paydo bo'lib shakllanarmish. Tashqi xodisalar, voqelik nechog'lik aniq va chuqur idrok etilsa, tuyg'ularga ta'sir shunchalik kuchli bo'lar ekan. Natijada ana shu taassurotlar qurshovida ruh, fe'l-atvor, borliqda o'ziga xos munosabat, olamni anglash qobiliyati shakllanadi.

Aflotunning fikriga ko'ra, rux eng ezgu olam bo'lgani uchun inson avvalo o'z ruxini kamol toptirishi zarur. Zero, ruhning sog'lomligi – aql-idrok butunligidir, ruhning pokizaligi — xissiyot pokizaligi, tuyg'ular musaffoligidir. Qalbida shunday fazilat mavjud odamda Vatan, xalq, millat tushunchalari oliy haqiqat darajasiga ko'tariladi. Biz qanchalik ruxan tozalikka erishsak, fikrimiz shunchalik toza, xayollarimiz ravshan, orzu-umidlarimiz yorqin bo'ladi. Atoqli turk olimi Ziyo Go'kalp: "Fikrlari xislariga tamomila muvofiq bo'lmagan har bir odam ruhan xastadir. Bunday odam hayotda baxtli bo'la olmaydi. Masalan, hissiyotiga ko'ra kuchli dindor bo'lgan kishi o'zini fikran dinsiz deb tushuna boshlasa, ruxi qandaydir bir muvozanat, osoyishtalik qolat ida bo'ladimi? Shubxasiz yo'q!"— deydi.

Yaqin o'tmishimizga bir nazar solaylik. Bir necha ming yilliklar mobaynida joni joniga, qoni qoniga payvand bo'lib ketgan Turkiston xalqlari sobiq SSSR davrida turli millatlarga ajratib tashlandi. Qog'ozdagina suveren, aslida esa Markazga qaram sovet respublikalari barpo etildi. Bu soxta siyosat tufayli an'analari, turmush tarzlari, ruhiy va ma'naviy qadriyatlari bir bo'lgan xalqlar o'zbeku qozoqda, tojigu qirg'iz, turkmanga bo'lib yuborildi.

Albatta, mazkur xalqlar o'tgan 70 yildan ko'proq. vaqt mobaynida millat sifatida shakalandi. Ularning o'z tili, madaniyati bor. Endi ularni butunlay birlashtirib yuborish milliy qadriyatlarini toptash bilan barobar. Biroq, masalaniig boshqa tomoni ham bor. Ya'ni, yagona Turkiston zaminida sobiq SSSR tarqalgach vujudga kelgan mustaqil davlatlar o'z tarixiy kelib chiqishlari, xalqlarining boy o'tmishi, ma'naviy va ruhiy extiyojlari nuqtai nazaridan o'zaro yaqinlashishga hayotiy zarurat sezishlari tabiiy holdir.

Turkiston xalqlari ruhiyati asrlar mobaynida bir-biriga tutashib, ma'naviy, diniy va ahloqiy munosabatlari uyg'unlashib ketgan, yashash tarzlari va urf-odatlarini mushtarak bo'lib, yagona o'lkan va jonli vujudga aylangan edi. Shuning natijasida qondoshu jondoshlik, bir butunlik an'analari tarkib topgan. Kishilik tarixida bunday ma'naviy, ruhiy va fikriy yaqinlik bu diyorda hamisha hamma narsadan ustun kelgan. Shuning uchun ham Mavlono Rudakiy: Dunyoning shodligi yitlsa butun, Do'stlar diydoridan bo'lol mas ustun", deb bejiz aytmagan.

Mustaqillik sharoitida bizning millat, millatlararo munosabatlar, milliy madaniyat, yaqin qardosh xalqlarning madaniy merosi, etnik muammolari, jug'rofiy va iqtisodiy birligi haqidagi tasavvurlarimiz o'zgarmoqda. Yangi tarixiy sharoitlarda vujudga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar Turkiston mamlakatlari xalqlari tarixi, ularning kelib chiqishi, o'ziga xos turmush tarzlari va yaqin qo'shnichilik munosabatlariga har qachongidan boshqacharoq qarashni taqozo etmoqda.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. I.A.Karimov. “O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura” , 1-jild. T. O`zbekiston.1996 yil.
2. I.A.Karimov. “Bizdan ozod va obod Vatan qolsin” 2-jild. T.” O`zbekiston” 1996 yil
3. I.A. Karimov. “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir” 3-jild. T.” O`zbekiston” 1996 yil
4. I.A.Karimov. “Bunyodkorlik yo`lidan” 4-jild. T.” O`zbekiston”. 1996 yil.
5. I.A.Karimov. “Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi” 5-jild. T.” O`zbekiston” 1997 yil.
6. I.A.Karimov.“Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo`lida” 6-jild. T.“O`zbekiston “1998 yil.
7. I.A.Karimov. “Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz. 7-jild. T. “O`zbekiston” 1999-yil.
8. I.A.Karimov. “Ozod va Obod Vatan, erkin va farovon hayot- pirovard maqsadimiz. 8 jild. T. O`zbekiston 2000 yil.
9. I.A.Karimov. “Vatan ravnaqi ushun har birimiz mas`ulmiz”. 9 jild T. O`zbekiston. 2001 yil. 10. I.A.Karimov. “Xavfsizlik va tinchlikushun kurashmoq kerak” 10 jild T. “O`zbekiston” 2002 yil
11. I.A. Karimov. “Biz tanlagan yo`l demokratik taraqqiyot va ma`rifiy dunyo bilan hamkorlik yo`li”. 11-jild. T. “ O`zbekiston” 2003 yil.
12. I.A.Karimov. “Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch.”.T.“Ma`naviyat”, 2008 yil.
- 13.I.A.Karimov.”Asosiy vazifamiz –vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir “, T., “O”zbekiston” 2010 .
- 14.Ibrohimov A, X.Sultonov, N. Jo`rayev. Vatan tuyg`usi. T. “O`zbekiston”, 1996.
- 15.Jo`rayev N, Fayzullayev T, Usmonov Q. O`zbekiston tarixi. 11-sinf.T., “Sharq”, 1998.
16. O`zbekiston jamiyatni demokratlashtirish va yangilash,mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish yo`lida .T., „Akademiya”, 2005.
- 17.Istiqlol yo`li .Mualliflar jamoasi .T., „Adolat”,1994